

SPORT TELEKANALIDA SPORT JURNALISTLARI VA ULARNING YANGILIKLAR UZATISH TEZLIGI

**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq filologiyasi
va Jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi Sadetova Ilmira Oralbaevna**

Annotatsiya: Sport jurnalistlari sport voqealarini tez va aniq yoritish orqali tomoshabinlarga yangiliklarni yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Sport jurnalistlarining yangiliklarni tayyorlash va uzatish jarayonlari, shuningdek, ularning ish uslublari va tezlikka ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Sport yangiliklarini uzatish tezligi ko‘plab omillarga bog‘liq: voqea sodir bo‘lishi, jurnalistning tajribasi, texnologiyalarning rivojlanishi va auditoriyaning talablariga javob berish zarurati.

Kalit so‘zlar: sport jurnalistikasi, tezlik, sport voqealari, jurnalist tajribasi, texnologiyalar, sport telekanallari, media tashkilotlar, sport turlari, ommaviy axborot vositalari, jurnalist uslublari.

Аннотация: Спортивные журналисты играют важную роль в донесении новостей до зрителей, быстро и точно освещая спортивные события. Анализируются процессы подготовки и передачи новостей спортивными журналистами, а также методы их работы и факторы, влияющие на скорость. Скорость передачи спортивных новостей зависит от многих факторов: времени события, опыта журналиста, развития технологий, необходимости удовлетворения потребностей аудитории.

Ключевые слова: спортивная журналистика, скорость, спортивные мероприятия, журналистский опыт, технологии, спортивные телеканалы, медийные организации, спорт, средства массовой информации, журналистские стили.

Abstract: Sports journalists play an important role in delivering news to viewers by covering sports events quickly and accurately. The processes of preparing and transmitting news by sports journalists, as well as their working methods and factors affecting speed, are analyzed. The speed of transmitting sports news depends on many factors: the occurrence of the event, the experience of the

journalist, the development of technologies and the need to meet the needs of the audience.

Key words: sports journalism, speed, sports events, journalistic experience, technologies, sports TV channels, media organizations, sports, mass media, journalistic styles.

"Axborot asri insoniyat hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Kishilarning hayot tarzi, farovonligi, bilim doirasi – barchasi uning necha ko'p axborotga egaligi bilan o'lchanmoqda. Ayni shu so'zlarni butun bir xalqlarga, davlatlarga ham nisbatan berish mumkin, ya'ni axborot oddiy shaxsdan tortib to jamiyatgacha hayot-mamot masalasiga aylanishga ulgurgan. Axboriylashuv jadallik bilan davom etayotgan hozirgi davrda axborotni boshqarish, uni to'g'ri talqin qilish nihoyatda muhim masalaga aylandi." "Mamlakatimizda olib borilayotgan axborot siyosati nafaqat siyosiy-iqtisodiy yoki ijtimoiy-ma'naviy sohalarda, balki sport sohasida ham har tomonlama mukammal amalga oshirilayotganini kuzatishimiz mumkin. O'zbekistonda o'tgan yillar davomida sportga juda katta e'tibor qaratildi. "Sog'lom avlod yili", "Sihatsalomatlik yili", "Obod turmush yili", "Yoshlar yili" kabi nomlar ostida bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar mamlakat rahbari tomonidan boshqarildi va davlat dasturlarida to'liq ifodalanmoqda. Davlat va jamoat tashkilotlarining hech biri bu dasturlardan chetda qolmagan. Ular ommaviy ravishda turli sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi tadbirlar, sport musobaqalari tashkil etib, o'z ishtiroklarini ta'minlash bilan birga, har tomonlama sog'lom va barkamol avlod tayyorlash ishida o'z hissalarini qo'shdilar. Texnika taraqqiy etgan bugungi davr nafaqat jismonan sog'lom, balki imkoniyati cheklangan odamlarning sport bilan shug'ullanishi va turli musobaqalarda ishtirok etishlari uchun sharoitlar yaratmoqda. Ular jamiyatda o'z o'rinlarini topishga, kimgadir boquvchi bo'lmay, jamiyatimizning teng huquqli a'zosi sifatida hayot kechirishga intilmoqdalar. Shuningdek, bolalarda ko'p uchraydigan, ba'zan jarrohlik yo'li bilan shifo topiladigan kasalliklar ham aynan sport mashg'ulotlari yordamida bartaraf etilayotgani bugungi kunda jismoniy tarbiyaning naqadar ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi."

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ommaviy sport targ'ibotini yana-da kuchaytirish choralari ko'rish to'g'risida» 2003 yil 4 noyabrdagi 484-son qaroriga asosan 2004 yil 1 yanvardan O'zbekiston milliy televideniyesi 4-Xalqaro telekanali negizida «Sport» telekanali tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 8 noyabrdagi «Mustaqil



telekanallarni isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni va 2005 yil 27 dekabrda «O‘zbekiston milliy televideniyesi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori asosida telekanal «Sport» televideniyesi davlat muassasasiga aylantirildi." "Bugungi kunga kelib, 24 soat, ya'ni tunu kun davomida faoliyat ko'rsatayotgan "Sport" telekanali yurtimizda hamda dunyoda sodir bo'layotgan barcha sport voqealarini yoritish, tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, sportni ommalashtirishga qaratilgan bir qator turkum ko'rsatuvlar sport jurnalistikasiining o'ziga xos janrlari, rukn va yo'nalishlarini shakllanishi uchun poydevor yaratdi. Sportning inson va oila hayotidagi rolini, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarga o'z qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishda sportning ahamiyatini ochib berish, dunyoda O'zbekistonning obro'-e'tiborini yanada oshirish borasida ommaviy axborot vositalari o'zining munosib o'rnini hamon topa olmayotganini, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanmayotganini ta'kidlash lozim." Sport jurnalistikasining texnologik rivoji: Sport yangiliklarini tez va samarali tarqatish imkoniyatlari kengaygan. Ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalarining rivojlanishi bilan sport jurnalistlari yangiliklarni real vaqtda taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu, o'z navbatida, sport yangiliklariga bo'lgan talabni kuchaytirdi va sport jurnalistikasining samaradorligini oshirdi. Sportchilarning jarohatlari, tayyorgarlik jarayonlari va shaxsiy hayoti haqida tezda ma'lumotlar tarqatilishi, auditoriya bilan yanada yaqin aloqada bo'lishga yordam berdi. Kross-media yondashuvi va auditoriya kengayishi: Kross-media yondashuvi yordamida sport jurnalistlari bir nechta platformalarda kontent yaratish imkoniyatiga ega. Bu yondashuv sport yangiliklarini faqat an'anaviy ommaviy axborot vositalarida (gazeta, televideniye) emas, balki internet, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar orqali ham yetkazishga imkon yaratdi. Natijada, sport yangiliklarini tarqatish va auditoriya bilan aloqada bo'lishning samaradorligi oshdi. Sportchilar sog'lig'i va jarohatlar haqida yangiliklar: Sport jurnalistikasida sportchilarning sog'lig'i va jarohatlari yoritilishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu mavzu sport jurnalistlari uchun dolzarb ahamiyatga ega, chunki o'quvchilar sportchilarning sog'liq holati va ularning tiklanish jarayonlarini kuzatish orqali musobaqalar va sportning boshqa jihatlari haqida ko'proq ma'lumot olishadi.

"Sport" telekanalidagi jurnalistlar, o'z navbatida, nafaqat mahalliy, balki xalqaro sport voqealarini ham qamrab olishadi. Yangiliklarni tez uzatish –

zamonaviy sport jurnalistikasining ajralmas qismi. "Sport" telekanali o'z tomoshabinlariga real vaqt rejimida yangiliklarni taqdim etadi. Bu esa sport tadbirlari davomida jamoatchilikni xabardor qilishda muhim ahamiyatga ega. Jurnalistlar, odatda, tadbir joyida bo'lib, bevosita efirga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ularning yangiliklarni tez va aniq uzatishlariga yordam beradi. Bugungi kunda texnologiya rivojlanishi sport jurnalistikasini yanada samarali qiladi. "Sport" telekanali zamonaviy uskunalardan va dasturlardan yordamida yangiliklarni tezkor ravishda tayyorlaydi va uzatadi. Jurnalistlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali ham yangiliklarni tarqatish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Bu esa ularning auditoriyasi bilan muloqot qilish imkoniyatini kengaytiradi. "Sport" telekanalidagi sport jurnalistlari o'z ishlarini professional darajada olib borib, yangiliklarni tez va sifatli uzatish orqali tomoshabinlarga eng so'nggi ma'lumotlarni yetkazmoqdalar. Ularning faoliyati nafaqat o'zbekiston sporti, balki xalqaro sport olamida ham muhim ahamiyatga ega. Yangiliklarni tezkor uzatish esa zamonaviy sport jurnalistikasi uchun zaruriy talabdir. Kelajakda ham bu soha rivojlanishda davom etishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Islomov.D. (2021). Sport va jurnalistika: Tezkor yangiliklar yoritish usullari. Toshkent: O'zbekiston Matbuot.
2. Karimov.T. (2020). Sport jurnalistikasining rivojlanishi. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
3. Mirzaev. M. (2019). Ijtimoiy tarmoqlar va sport jurnalistikasining kelajagi. Toshkent: Media Press.
4. <https://inlibrary.uz/index.php/journal-science-innovative/article/download/64659/65751>

Research Science and
Innovation House